

INKLYUZIV TA'LIM: NUQSONI BOR BOLALARNING KELIB CHIQISH  
SABABLARI VA ULARNI KORREKSIYALASH

**Sirojiddinov Hasanbek Isomiddin o'g'li**

**Sirojiddinov Husanbek Isomiddin o'g'li**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti,*

*Tabiiy fanlar fakulteti*

*Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabalari.*

**Anontatsiya:** Hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish masalalari bugungi kunda eng dolzalb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Turli xil davlatlarda alohida muxtoj bo'lgan bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishda va ularning qobiliyatlarini shakllantirish rivojlantirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimida o'qitilmoqda. Shundan tashqari hozir kimlarda bu kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish bo'yicha chora tadbirlar olib borilmoqda.

**Kalit sozlari:** inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, koreksiya, o'qitish, tarbiyalash, ta'lim differentsiyal, interegitsiya, anomal TDPI.

Maxsus pedagogika-turli nuqsoni (kamchilik)lari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha defectus nuqson, kamchilik, logos fan, ta'limot) rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi. Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman etirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

O'zbekistonda korreksion pedagogikaning rivojlanishi 1967-yildan boshlab tezlashdi. Chunki shu yili Nizomiy nomidagi TDPI Pedagogika va psixologiya fakultetida Oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. 1972-yilda oligotrenopedagogika kafedrasini o'z faoliyatini boshladi. 1983-yilda surdopedagogika bo'limi qo'shildi. 1984-yili esa mustaqil kunduzgi va sirtqi Korreksion pedagogika fakultetlarida oligofrenopedagog, surdopedagogika tiflopedagog, logoped mutaxassisliklar bo'yicha kadrlarni tayyorlash ishlar boshlab yuborildi. Hozirgi kunda oligofrenopedagogika va logopediya, Korreksion pedagogika fanini klinik asoslan va surdopedagogika

kafedralari qo'shib, maxsus pedagogika va metodika kafedrasiga aylantirildi, o'z faoliyatim Pedagogika va Korreksion pedagogika fakultetida amalga oshirilmoqda. Korreksion pedagogika fanning rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralish chiqdi. Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalar kiradi :

1. Surdopedagogika (lotincha, surdus-kar gung so'zidan olingan). eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim- tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

2. Titlopedagogika (yunoncha tiflos - ko'r, so'qir so'zidan olingan), ko'rishda nuqsoni bolgan bolalarning ta'lim -tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

3. Oligofrenopedagogika (yunoncha-oligos kam, fren-aql so'zlardan olingan) aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

4. Logopediya (yunoncha logos-so'z, padeo-tarbiyalash so'zlandan olingan) - og'ir nutqiy nuqsonlarni o'rgatish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

5. Motorli-harakatlanish apparatning murakab nuqsonlari (ko'r soqov va karlik) ni o'rganuvchi maxsus pedagogika va psixologiya asoslari.

Pedagogik lug'atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «correctio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki toliq) sifatida tushunilishi takidlab o'tiladi. Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat ortasidagi nomuvofiqlikni yoqotish yoki kamaytirishdan iborat. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi: Rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolalarning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash; Differentsatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish; Anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;Rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish; bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yoqotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish kerak.

Korreksion pedagogika differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish, anomal bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, kompensatsiyalash, iloji boricha korreksiyalash, tuzatish, ko'zga ko'rinmaydigan darajagacha kamaytirish yo'llari, usullarni belgilash va amaliyotga tatbiq etish usullarni tarbiyachi va o'qituvchilarga ko'rsatib berishdir. Anomaliyalarning harakteriga qarab, bazilari to'liq bartaraf etiladi, bazilari korreksiyalanadi, yani qisman tuzatiladi, boshqalari esa kompensatsiya etiladi, va' almashtinladi. Agar bola nutqida qo'pol kamchilik bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralar o'z vaqtida ko'rib yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa, (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi). Uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida ana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham korreksiyalab ham bo'lmaydi. Masalan, tug'ma ko'rlik va tug'ma karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatonrung vazifasi sezgi organlarga, eshitish analizatonning vazifasi esa ko'rish analizatorga yuklash, va kopensatsiyalash o'rnini bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlarga tayangan holda barmoqlari bilan brayl sinfidan foydalanadilar. Bunda harf oltita nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa, imo-ishora, ya'ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanish mumkin Patologik jarayon nerv tizimining qaysi qismida sodir bo'iganligiga qarab; bosh miya asab tizimi kasalliklar, orqa miya asab tizimi kasalliklar, penfenk asab tizimi kasalliklan va vegetativ asab tizimi kasalliklarga bo'linadi. Kasallik tug'ma yoki hayot davomida sodir bo'lishi mumkun. Kasallikni kelib chiqaruvchi tashqi va ichki omillar bo'ladi. Tashqi omillarga mikroorganizmlar (baktenyalar, zam brug'lar, viruslar, koklar), mexanik ta'sirlar (lat yevish, suyak smishi, chiqishi, jarohatlar), fizik ta'sirlar (yuqon va past harorat), kimyoviy ta 'sirlar (kislota, ishqor va zaharli moddalar'), biologik ta'sirlar (vaksina va zardoblar) va allergik ta'sirlar kiradi. Ichki omillarga organizm o'zida sodir bo'ladigan o'zganshlar (suv, tuz, elektrolitik miqdorining o'zganshi. oqsillar, yog'lar, uglevodlar, aminokislotalar, vitamin, gonnonal buzilishlar, qon tarkibimng buzilishi, genetik va moddalar almashinuvi buzilishlari) kiradi. Bunday ta'sirlar natijasida ko'proq bolalarda ko'rishida, eshitishida, nutqida va aqliy rivojlanishida nuqsonlar paydo boliadi. Bunday bolalarga nisbatan insonparvarlik yondashuvi zarunyati tug'iladi. Kar-soqov bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlan tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan

kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi. Onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa streptomitsin, xam, singari dorilarning homilalarning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarsinlar bo'lishi, masalan. eshitish yo'li atreziyasi — bituv. Qulog'i og'irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atning kambag'al bo'lishi grammatik komponent rivojlanmagan — gap ichida so'zlarni tutashib ketish, so'zlarni notog'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish — o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bilmaslik bilan adashtirishi tushunib ketish va boshqalar shular jumlasidandir. Bola nutqidagi kamchiliklarni kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga notog'ri munosabatda bo'lishadi natijada bola injiq, yig'loqi serjahl, kam gap bo'lib qoladi, yani unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari o'quv rejasiga labdan o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash mashg'ulotlari kiritilgan. Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablanga ko'ra, tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sabablan orasida irsiy kasalliklar (masalan, tug'ma katarakning ba'zi shakllantirish va boshqalar), homilador ayolning toksoplazm oz, qizilcha kasalliklari bilan og'lishi homila ko'rish organlarning embrional rivojlanish paytida zararlanishi, miya o'simtasi va shu kabi kasalliklar katta ro'l o'ynaydi. Orttirilgan ko'rish anomaliyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Alohida davolash-profilaktika, oftalmologiya yordamini yaxshilangani tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilgani munosabati bilan zaif ko'ruvchi bolalar ancha kamaydi. Traxoma, chechak, so'zak, ko'z sili, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida bolalarning ko'z yoki zaif ko'ruvchi bo'lib qolish hodisalarga deyarti tamomila barham berildi ko'z ojizligi, va ko'rish nuqsonlar zo'rayib boradigan va bir xil turadigan bo'ladi. Zo'rayib boradigan kun sayin og'irlashib, bora-bora ko'rlikka olib keladi. Muqim xili esa turg'un bo'ladi, bolaning ko'rish darajasi doim bir xilda turaveradi. Ko'rish qobiliyatining zo'rayib boradigan zaifligi, ko'ksuv, ya'm glaukoma kasalligi (ko'z ichki bosimning ko'tarilib ketishi) ko'z nervi atrofiyasi, to'r parda (ko'zning yorug'lik qabul qiladigan qismi) distrofiyasi (aynishi) ga bog'liq bo'lib, bolaning har qanday rivojlanish davrida vujudga kelishi mumkin. Gigiyenik talablarga rioya qilmaslik refraksiya anomaliyalar bilan bog'liq bo'lgan ko'z kamchiliklar zo'rayib borishiga ham olib keladi (faqat yaqindan yoki uzoqdan ko'rishga). Yosh go'daklarda ba'zan ko'zga oid tug'ma nuqsonlar ham uchraydi. Kriptotalm — olmasi, qovoqlarning tug'ilishdan rivojlanmay

qolgani; nikroblefaron — ko'z qovoqlar kaltaligi tufayli ko'zning yumilmay turishi, koloboma — qovoqlarning nuqsoni va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday kam chiliklarning jarrohlik yo'li bilan davolab, ulami bartaraf etsa bo'ladi.

### **XULOSA**

INKLYUZIV ta'limdan turli xil metodlari amaliyotlarda qo'llash orqali va tjrlri xil nuqsoni bor bolalarda tajribalar shuni ko'rsatdiki har qanday imkoniyati cheklangan bolalaning nuqsoni kamaytirishda va ularning oldini olishda birinchi navbatda ota -onalar o'rtasidagi qon qarindoshlik aloqalarini kamaytirish va yoshlar o'rtasidagi turli xil spirtli maxsulotlarni istemol qilmaslik va siz qabul qilayotgan turli xil dori darmonlarga etibor qaratilishi chora tadbirlar olib borilishi kerak. Agar bolalarda boshqa sabablarga ko'ra ilk yoshida nuqsoni aniqlansa yoki keyinchalik paydo bo'lsa mutaxasislarga murojaat qilinishi kerak o'z vaqtida va nuqsonini oldindan koreksiyalash imkoniyati bo'ladi.Yani har bir ota-ona o'z farzandlari haqida qayg'ulashlari va farzandlarining ta'lim tarbiyasiga etibor berilsa biz albata ko'zlangan maqsadimizga erishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Yoldashev Otkir Jumaqozevich,, Abdurashidov Adxam Abdulhamitovich. Umumiy pedagogika Farg'ona nashriyoti 2021 yil

2.J. Yo'ldoshev, A.A. Abdurasludov J Yo'ldoshev; M.M.Xoldorov ; M.M.Yusupov,A.N. Nusratov S.S. Isamitdinov, N.M.Ochiiova © «Fan \a texnologiya» nashriyoti, 2019 Umumiy pedagogika

3.SH.S.SHODMONOVA, M.E.AXMEDOVA, X.H.HAMZAYEV,Z.N. YULCHIYEVA, A.A.AKROMOV, M.GAPPAROVA. Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliy

4.M .U . X A M I D O V A MAXSUS PEDAGOGIKA